O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH VAZIFALARI

Pirimbetov Baxit Allaboyevich
Innovatsion texnologiyalar universiteti "Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim" kafedrasi dotsent v.v., pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Kalit so‘zlar: *To‘g‘ri qo‘yilgan mehnat tarbiyasi o‘qitish va kasbga yo‘naltirish maktab o‘quvchilarining jamiyatga foydali ishlab chiqarish ishlarida ishtirok etishi - o‘qishda, shaxs sifatida shakllanishi.*

Ключевые слова: *Правильно поставленное трудовое воспитание, обучение и профориентация способствуют участию школьников в общественно полезной производственной деятельности - в учебе, формированию личности.*

Key words: *Properly established labor education, training, and career guidance contribute to the participation of schoolchildren in socially useful production activities - in learning, personality formation.*

Rezyume: *Ushbu maqolada mehnat faoliyati shaxsning xulq-atvorini shakllantirib va o‘zgartirib, uning jamiyatga, tabiatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi.*

Резюме: *В данной статье трудовая деятельность формирует и изменяет поведение человека, изменяя его отношение к обществу и природе.*

Summary: *In this article, labor activity shapes and changes a person's behavior, changing their attitude towards society and nature.*

Maktab bitiruvchilari maktabdan so‘ng ishlab chiqarishning barcha tizimida yengil yo‘nalish olishi va bo‘layotgan o‘zgarishlarga tez moslasha olishi kerak. Mehnat tarbiyasiga shaxsni tarbiyalashning muhim omili sifatida

va xalq xo‘jaligining mehnat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi muhit sifatida qarab o‘tish o‘rinlidir. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan mehnat tarbiyasi, o‘qitish va kasbga yo‘naltirish maktab o‘quvchilarining jamiyatga foydali ishlab chiqarish ishlariga qatnashishi - o‘qishda, shaxs sifatida shakllanishida, axloqi va shaxsiy fazilatlarining paydo bo‘lishida, jismoniy o‘sishida almashtirib bo‘lmaydigan omillardir. Mehnat tarbiyasi o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash jarayonida eng asosiy markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Xalq ta’limi vazirligining jamiyatga foydali ishlab chiqarish mehnatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorida maktabning hozirgi bosqichdagi asosiy masalalaridan biri mehnat tarbiyasi va o‘qitishning sifatini oshirish, ularni mustaqil yashashga amaliy va axloqiy-psixologik jihatdan hayotga tayyorlash, o‘quvchilarda mehnatga ongli talabchanlikni shakllantirish masalalari ko‘rsatilgan.

Mehnat jamiyatning moddiy va ma’naviy boyliklari asosidir. Mehnat faoliyati jarayonida inson nafaqat tabiatini o‘zgartiradi, balki o‘zi ham o‘zgaradi. Mehnat faoliyati shaxsning xulq-atvorini shakllantirib va o‘zgartirib, uning jamiyatga, tabiatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Mehnat faoliyati shaxsning xulq-atvorini shakllantirib va o‘zgartirib turadi, jamiyatning moddiy va ma’naviy boyliklarining asosi hisoblanadi. Mehnat faoliyati jarayonida inson faqat uning jamiyatga, tabiatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Mehnat kishining aqliy qobiliyatiga ham ta’sir qiladi, mehnat faoliyatidagina inson o‘zini ko‘rsata oladi, qobiliyatini o‘stiradi va oshiradi. Mehnat taraqqiyotida insonning xulq-atvor munosabatlari o‘zgaradi, uning jismoniy rivojlanishi amalga oshadi, mehnatga o‘rganishi va tajribalari ortadi. Lekin hamma mehnat ham shaxsni hayotga har tomonlama tayyorlashning omili bo‘la olmaydi. Mehnat tarbiyasi o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash jarayonida eng asosiy markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Xalq ta’limi vazirligining jamiyatga foydali ishlab chiqarish mehnatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorida maktabning hozirgi bosqichdagi asosiy masalalaridan biri mehnat tarbiyasi va o‘qitishning sifatini oshirish, ularni mustaqil yashashga, amaliy va axloqiy-psixologik jihatdan hayotga tayyorlash, o‘quvchilarda mehnatga ongli talabchanlikni shakllantirish masalalari ko‘rsatilgan, hozirgi ishlab chiqarish sharoitlari o‘quvchilarning bilimi bilan mehnat tarbiyasining uyg‘un bo‘lishini talab etadi. Bitiruvchilar maktabdan so‘ng ishlab chiqarishning butun tizimidagi yengil yo‘nalish olib ketishi va bo‘layotgan o‘zgarishlarga tez moslasha olishi kerak. Mehnat tarbiyasiga shaxsni tarbiyalashning muhim omili sifatida hamda xalq xo‘jaligining mehnat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi muhit sifatida qarab o‘tish o‘rinlidir. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan mehnat maktab o‘quvchilarining jamiyatga foydali ishlab chiqarish ishlariga axloqiy munosabati o‘qishda, shaxs bo‘lib shakllanishida odat va shaxsiy xususiyatlarning paydo bo‘lishida, jismoniy jihatdan o‘sishida almashtirib bo‘lmaydigan omillardir. Hamma mehnat hayotga tayyorlashning omili bo‘la olmaydi. Insonga hal qiluvchi va tarbiyalovchi ta’sir ko‘rsatadigan mehnat bu odamni majburlashdan xoli bo‘lishi kerak.

Agar odam majburiy mehnat qilsa, bu jarayon uning ruhiy rivojlanishini to‘xtatadi va axloqiy qoniqish hissini pasaytiradi. Jamiyatda inson mehnat rohatini his qiladi, mehnat esa shaxsni rivojlantirishning asosiy omili bo‘ladi. Jamiyatda inson mehnatga o‘z ijodini sarflaydi, vaqtdan unumli foydalanishni o‘rganadi, mehnatning yuksak madaniyatiga erishadi, jamoada axloqiy munosabatlarni rivojlantiradi, ma’lum darajada shakllantiradi. Maktab o‘quvchilarini mehnatga tarbiyalashning asosi tajribali o‘qituvchilar o‘qishni ishlab chiqarish mehnati bilan uyg‘unlashtirishida deb hisoblanadi. Jamiyatda mehnat va tarbiya uyg‘unlashtiriladi, shu tariqa o‘spirin avlodga har

tomonlama milliy tarbiyaning amaliy asosi sifatida politexnik bilimlar beriladi. Ma'lum yoshdan keyin barcha bolalar uchun ishlab chiqarish mehnati, o'qish va gimnastika bilan birlashtiriladi, u nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarishni oshirish uchun vosita, balki har tomonlama rivojlangan odamlarni kamol toptirish uchun yagona yo'l bo'la oladi.

O'qishni mehnat bilan birlashtirish mehnatga to'g'ri munosabatni ta'minlabgina qolmay, dunyoqarash g'oyalarini egallash, umumiy ta'lim bilan mehnat tarbiyasining o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

ÁDEBIYATLAR:

1. Karimov I.A. Ózbekstan XX1 ásirge umtılmaqta. «Erkin Qaraqalpaqstan», 1999, 17-aprel.

2. Pedagogika. A.K.Munavvarovtıń ulıwma redaktorlıǵında T. 1996.

3. Ǵaybullaev N. hám basqalar. Pedagogika. T. 1997.